

TONG Yulduzi

№29 (66414)
2003 yil
28 iyul
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan

SOG'LOM BO'LGAYSAN MUTLOQ SUZISHNI O'RGAN O'RTIQ

Suvda suzmoq qanday soz,
Qishmi, bahor yoki yoz,
Sportchilar uchun hech,
Fasl qilmas e'tiroz.

Suv havzasi keng, chuqur,
Suzaver, qilib huzur.
Suzishning turi ancha,
Batterflyay, chalqancha.

Ko'rsang, qilarsan havas,
Eng zo'r uchuli - brass.
Misli baliq bo'lasan,
Zavqu shavqqa to'lasan.


Sof havo, quyosh, suv
Yayrab ketar jonu-tan.
Sog'lom bo'larsan mutloq,
Suzishni o'rgan, o'rtiq.

Shoir Muhiddin Omon ayganidek,
barcha sport turlari singari suzish ham
insonni sog'lom, baquvvat qiladi. Buni
yaxshi tushungan Sobir Rahimov
tuman Xalq Ta'limi bo'limi bolalar va
o'smirlar jismoniy tayyorgarlik suzish
markazidagi murabbiylar bolalarni
hamisha suzish markaziga jalb qilib
kelyaptilar.

Olti yoshdan maktabga borgan
Maxsudjon Po'latovni ham murabbiy-
Noila opa Latipova o'quvchilar
orasidan tanlab oldi. Uning kelgusidagi
yutuqlariga umid bog'ladi.

Sobir Rahimov tumanidagi 310-
iqtsodga yo'naltirilgan litsey-
maktabning 5- sinfini tamomlagan
Maxsudjon ta'til kunlarida ham
murabbiysi Alisiya Vasilyevna
boshchiligida suzish mashg'ulotlari
bilan band.

U hali katta musobaqalarda ishtirok
etmagan bo'lsa-da, ammo tuman,
mahallalararo bo'lgan musobaqalarda
yuqori ko'rsatkichlarga erishmoqda.
Maxsudjonning bo'sh
vaqtini



Ustoz va do'stlar davrasida.

topib, undan yutuqlari, orzu-intilishlari
haqida so'radik:

-Do'stim Islomjon Yo'ldoshev bilan har
kuni suzish mashg'ulotiga qatnaymiz. U
yerda suzishning to'rt xil usuli -
batterflyay, ya'ni delfincha suzish, brass,
ya'ni qurbaqacha suzish, chalqancha
hamda kroll, ya'ni erkin suzish usullarini
o'rganyapmiz. Menga ko'proq erkin
suzish yoqadi. Bu usulda suzganimga
vaqtdan yutaman. Musobaqalarda aynan
shu kerak.

Yaqinda mahallalararo suzish
musobaqasini o'tkazdik.
Unda men 50 metr
masofani 37 soniyada
suzib, ikkinchi o'rinni egalladim.

Xuddi shunday musobaqa suzish
markazida ham bo'ldi. To'rt
xil usulda suzdik. Unda 100
metr masofani 1.40 soniyada
suzib, uchinchi o'rinni
oldim. Bundan sira xafa
bo'lmadim. Aksincha, o'z
ustimda yanada ko'proq
ishlashim kerakligini his
qildim.

Murabbiyimiz Alisiya
Vasilyevna boshchiligida har
kuni havoda, so'ngra suvda
mashg'ulot o'tkazamiz.
Havoda deganim shuki,
avvaliga o'n besh daqiqa
sport maydonchasida
yuguramiz, nafas
rostlaymiz, sakraymiz.
Xullas, yarim soat havoda
mashg'ulot o'tamiz.
So'ngra suvga tushamiz.
Suvda ham mashg'ulotlar
o'tamiz. Bu menga juda
yoqadi. Umuman suvni
juda yaxshi ko'raman.

-Yaqinda Parkentdagi
«Sumcha» dam olish
oromgohiga birgalikda
borgandik, -
qo'shimcha qildi
Maxsudjonning
onasi. - Bir vaqt
qarasam, hamma
katta hovuz
atrofida. «Kimdir
hovuzga tushib
ketibdi», degan
ovoz ham
kelyapti. Men
ham o'sha
yerda
oshiqdim. Ne
ko'z bilan

ko'rayki, u yerda mening o'g'limdan
bo'lak hech kim cho'milmas edi.
Atrofdagilar barchasi o'g'limni
olqishlashardi. Keyin bilsam, hech kim
hovuzga cho'kmabdi, balki ular
Maxsudjonning suzishini tomosha
qilishayotgan ekan.

Buni sezib qolgan Maxsudjon uyalib
ketdi. Tezda hovuzdan chiqdi. Shunda u
yerning murabbiylari ham darrov
musobaqa uyushtirishdi.
Suzishga

Sog' yurak — tog' yurak
havasmandlar
ham ko'payib ketdi, - deydi

ona hayajonlanib.
Ayni paytda mazkur markazda
mashg'ulotlar avjida. Sababi, yaqinda
Olmaliq shahrida bo'ladigan bolalar va

o'smirlar suzish musobaqasiga
tayyorgarlik ko'rishyapti.

«Nasib bo'lsa, ushbu musobaqada
qatnashaman va murabbiylarim
ishonchini oqlayman», deydi
Maxsudjon. Ha,

ishonchni oqlash
uchun tinimsiz
mashaqqatli
mehnat qilish
kerak. Bu borada
Maxsudjonga
sabr-toqat va
albatta omad tilab
qolamiz.



Feruza SOYIBJON qizi.

Ibrat

3600 oila istiqomat qiladigan o'z nomiga
munosib «Guliston» mahallasiga kirib
borganimizda bolalarning g'ala-g'ovuri
ustidan chiqdik.

Hali katta sportning mehnatu
mashaqqatlariga o'rganmagan bu
bolakaylarning maqsadlari yagona -
g'alabaga erishish edi. Aka-opalarining
o'yini tezroq tugashini sabrsizlik bilan
kutayotgan 5 yoshli
Mansurjonni

MAHALLAM - OYUNAR JOYIM

suhbatga tortdim:

-Nimadan xafasan?

-Menga shashkani hecham
berishmayapti, kichkinasan deyishadi. Men
esa shashka o'ynashni bilaman, dadamdan
o'rganib olganman.

-Bu yerga kim bilan chiqasan?

-Akam bilan...

Suhbatimizga qiziqib quloq tutayotgan 8
yoshli Farhodjonga ham shu savol bilan
murojaat qildim:

-Men ham akam bilan har kuni
mahallamizdagi shaxmat- shashka
to'garagiga chiqaman. Ammo ular bizni,
kichkinasanlar, deb o'ynatishmaydi-da.

-Kelinglar, endi sizlar o'ynaysizlar, -deya
chaqirib qolishdi ularni akalari.

Sevinchi ichiga sig'may akalari tomon
oshiqayotgan, bolalikning beg'ubor
damlarini surayotgan bolakaylar ortidan
havas bilan boqib qolaman...

Mo'jajgina mahalla qo'mitasi bolalarning
shovqin-suroni bilan yanada fayzliroq
ko'rinardi.

-Mana ikki yildirki, mazkur maskanimiz
bolajonlarning eng sevimli joyiga aylanib qoldi,
- deydi 43 yildan buyon mahallaga oqsoqollik
qilib kelayotgan Sayfullo ota
Oqmirzayev. -

Yurtimizda


bolalar sportiga katta ahamiyat
berilayotgani barchamizni juda quvontiradi. Axir
sport salomatlik, barkamollik degani-ku. Ular
shaxmat-shashka o'ynabgina qolmay, o'qigan
qiziqarli kitoblari, ko'rgan yangi filmlari haqida
ham maroqli suhbatlar quradilar. Bo'sh vaqtlari
unumli taqsimlanganki, beboshlik ko'chalaridan
uzoq yuradilar. Mahalla xotin-qizlar qo'mitasi
raisasi Mamlakatxon Ahmedova, bolalar
pedagogi Irina Xasanovalar bolajonlarimizning
mehrbon murabbiylaridir.

Mahallani aylanib, oqsoqolning gaplarini,
kelgusidagi ulkan rejalarini tinglar ekanman,
ko'z oldimga beixtiyor qarovsiz, fayzsiz ayrim
mahallalarimiz, tog'-tog' axlat uyumlari,
kimsasiz mahalla qo'mitalari keladi. Qaniydi,
barcha mahallalarimiz «Guliston»dek obod,
bolajonlari shod bo'lsa. Sayfullo ota kabi fidoiy,
bolalarni, xalqini sevuvchi insonlarning
yashayotgan umri har birimizga saboq
bo'lgudek...

Ma'mura MADRAHIMOVA.

Yoz - o'tmoqda soz!

TO'GARAKLAR YOZDA HAM ISHLAYDI



Boshqa joylarda qanday bilmadimu lekin Buxoro viloyati ma'naviyat va qo'shimcha ta'lim markazi ayni kunlarda o'quvchilar bilan gavjum. Unda bir nechta to'garaklar muntazam faoliyat olib boryapti. O'quvchilar turli sahna ko'rinishlarini, qizlar bahslarini, «Obod mahalla yili»ga bag'ishlangan tadbirlarni tayyorlab, viloyat miqyosidagi oromgohlarda tengdoshlariga namoyish qilishyapti. Oromgohdagi bolalar ularning qobiliyatiga baho beribgina qolmay, to'garaklar faoliyati bilan yaqindan tanishib, shu yerning o'zidayoq qo'shimcha ta'lim markaziga a'zo bo'lmoqdalar. To'g'ri-da, bekor yurgandan ko'ra kashtachilik, to'qish, misgarlik, duradgorlik, naqqoshlik, rassomlik va boshqa hunarlarni o'rgangan yaxshi emasmi? Axir «Hunarli xor bo'lmas» deb bekorga

aytishmaydi-ku. O'quvchilarning hunarli bo'lishida esa ustozlarning hissasi beqiyos.

O'z bilimlarini bolalardan ayamayotgan, yozning issiq kunlarida ham horidim demay, mehnat qilayotgan ustozlarimga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

Muhayyo SHARIPOVA,

Buxoro viloyati, Peshku tumanidagi

15-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi.



«BIZDAN OBOD MASKAN QOLSIN»

yili. Mahallamizni obod, ko'rkam, farovon maskanga aylantirib, kelajak avlodga bundan-da obod qilib qoldirishni o'zimizga maqsad qilib olaylik. Bolalarimizning sportga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshirish maqsadida sport klubi, qariyalarimiz uchun shinamgina choyxona, qolaversa, umumiy kasalxona qurish bizning asosiy rejalarimizdir. Kelinglar, hammamiz bir yoqadan bosh chiqarib, qurilish ishlariga qo'limizdan kelganicha yordamlashaylik...

Oqsoqolimizning da'vatlaridan keyin hamma o'zini qurilish ishlariga urdi. Tinimsiz mehnatdan so'ng, ko'zlangan maqsadga erishdik.

Oqsoqolimizning gaplari zoye ketmadi. Hozirgi kunda qurilish inshootlari ham, obodonchilik ishlari ham nihoyasiga yetdi. Ushbu inshootlarning ochilish marosimi haqiqiy bayramga aylanib ketdi.

Zohida JUMAYEVA,

Surzondaryo viloyati,

Denov tumanidagi 52-o'rta maktabning

10-sinf o'quvchisi.

GAZETADA BOSILDI, AMMO...

Assalomu- alaykum qadri «Tong yulduzi». Men sizlarga ko'chamiz asfalt qilinmaganligi haqida tanqidiy maqola yozib yuborgan edim. Ushbu maqolam gazetada e'lon qilindi. Buning uchun rahmat.

Maqolam chiqqan gazetani qo'limga oldimu shahar hokimiyatiga bordim. Biroq ulardan tayin bir gap eshitmadim. Shuning uchun ham yana sizlarga maktub yo'llayapman. Matbuotni To'rtinchi hokimiyat deyishadi. Hokimiyatdagi amakilarimizning matbuotga bo'lgan e'tiborlaridan ranjib ketdim.

Yog'ingarchilik kunlarida ko'chalarimiz ahvolini bir tasavvur qilib ko'ring...

Oynisa ESHMURODOVA,

Samarqand viloyati, Oqtosh shahridagi 64- o'rta maktab

II-sinf o'quvchisi.

TAHRIRIYATDAN:

Oynisaxon, sabrning tagi sariq oltin, deyishadi. Yana biroz sabr qiling-chi. Shoyad, hokimiyatdagi mutasaddi amakilar mazkur «Obod mahalla yili»da ko'chalarimizni asfaltlab berishsa. Axir yilning yakuniga hali ancha vaqt bor-ku...



Buvimlardan mahallamiz nomi tarixini so'rasam, ushbu rivoyatni aytib berdilar:

Rivoyat qilishlaricha, bir dindor kishi daraxt tagida namoz o'qiyotgan ekan. Shu payt daraxt shoxidan bir chumoli shu kishining yelkasiga tushib ketibdi. Dindor kishi namozini tugatib joynamozini yig'ishtirayotganida, ko'zi haligi chumoliga tushibdi. Chumolini qo'li bilan chertib, ariqdagi suvga tushirib yuboribdi. Bechora chumoli harchand urinmasin, suvdan chiqa olmabdi. Nogahon

shu yerdan Boqi ismli razil bir inson lashkari bilan o'tib ketayotib, ariqdan suv ichmoqchi bo'libdi. Shunda ko'zi ariqda oqib ketayotgan chumoliga tushibdi. Ehtiyotlik bilan chumolini suvdan qutqarib olib yerga qo'yayotgan ekan, chumoli mo'ysafid cholg'a aylanibdi va:

-Ey, o'g'lim, razillik to'la qalbingda zarracha bo'lsa-da, ezgulik yashiringan ekan. Bundan keyin ham qo'lingdan kelganicha yaxshilik qil. Bu olam sen kabi insonlar tufayli yaxshilikka burkansin. Menga qilgan yaxshiliging evaziga barcha gunohlaringdan forig' bo'lding,- deya ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Dindor kishi esa umr bo'yi namoz o'qisa hamki, qilgan gunohi uchun do'zax azobiga duchor bo'libdi.

Boqi mo'ysafidning gaplaridan ta'sirlanib, qolgan umrini barchaga yaxshilik qilib o'tkazibdi. Ko'pchilikning duosiga sazovor bo'libdi. Ana shu sahovatli inson shu yerda yashagani uchun, ko'chamiz nomi uni ismi bilan, «Mahalla Boqi» deb atalgan ekan.

Sherzodbek NARZIYEV,

Navoiy viloyati, Navoiy shahridagi

15-o'rta maktabning 8-sinf o'quvchisi.

YOSH KARATECHILARIMIZ AFINADA

Aziz bolajonlar, Respublikamizda Milliy Karate Federatsiyasining tashkil qilinganidan xabaringiz bor. Ayni kunda u Jahon va Osiyo karate federatsiyalarining teng huquqli a'zosi bo'lib, uni 157 mamlakatning shu yo'nalishdagi tashkilotlari va Olimpiya qo'mitasi rasman tan olgan. Mazkur uyushmaning jahondagi shunday tizimlardan keskin farq qiladigan o'ziga xos jihati a'zolarining aksariyati 7-8 yoshli o'g'il-qizlardir.

Respublikada xizmat ko'rsatgan sport ustasi Nurxon Nafasov yetakchilik qilayotgan bu uyushmaga qatnayotgan bolajonlar uka va singillarini ham yetaklab kelishayotgani quvonarli holdir. Ular orasida O'zbekiston va Markaziy Osiyo chempionatlarida qatnashib, g'oliblikka erishgan qora belbog' sohibi Shahnoza va uning

ukasi Mirjalil Mirsoatovlar, 1999 yili Germaniyada bo'lib o'tgan jahon chempionatining eng jazzi ishtirokchilari 6-7 yoshli Shirin va Sherzod Abduhakimovlar ham bor.

Shu kunlarda yosh, umidli karatechilarimiz Afinada bo'lib o'tgan Xalqaro musobaqada ishtirok etib qaytishdi. 6 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan 17 nafar sportchi o'g'il-qizlarimiz 40 dan ziyod mamlakatlardan kelgan tengqurlari bilan bellashdilar. Ular 6 ta oltin, 7 ta kumush va 8 ta bronza medaliga sazovor bo'lishdi.

Erishilgan ulkan yutuqqa Nodir Xo'jayev, Doston Turg'unov, Feruzbek To'rayev, Shavkat Yo'ldoshev, Baxtiyor Rahmonov kabi yosh mohir karatechilar ulkan hissa qo'shdilar. Tajribali sportchi Alisher Sodiqov bosh murabbiylik qilayotgan yosh karatechilarimizning Jahon kubogidagi ishtiroki va qo'lga kiritgan natijalari haqida gazetamizning navbatdagi sonlarida hikoya qilamiz.

Javlon SA'DULLAYEV.

YANGI MAQSADLAR SARI

Mana ko'z ochib yumguncha yozgi ta'tilning yarmi ham o'tib qoldi. Ta'til kunlarini kimdir oromgohlarda, kimdir dam olish maskanlarida, yana kimdir qarindosh-urug'larinikida o'tkazyapti.

Lekin ular orasida ta'tilni bilim olish bilan o'tkazayotgan o'quvchilar ham yo'q emas. Ular qalbida turli xil tug'yonlar mavj urayotgan, yangi maqsadlar sari ilk qadam tashlashga chog'lanayotgan maktab bitiruvchilaridir. O'zi istagan bilim yurtida o'qish har bir abituriyent uchun katta baxtdir. Lekin orzularga yetishishning o'zi bo'lmaydi, o'quvchidan puxta bilim va mas'uliyat talab qiladi.

Men barcha abituriyent aka-opalarimga omad tilayman. Vatan uchun halol xizmat qiladigan inson bo'lishlarini chin dildan xohlayman.

Mukarram ZOKIROVA,

Alisher Navoiy nomli Nafis san'at litseyi

o'quvchisi.

Farangiz Nasriddinova - 1991 yil Xorazm viloyati, Urganch shahrida tug'ilgan. Hozirda shahardagi 20-litseyning 5-sinf o'quvchisi. 2-sinfdan boshlab ijod bilan shug'ullanib kelmoqda. 2002 yilda «Kamalak» nomli she'riy to'plami chop etilgan. She'r yozish bilan birgalikda yozgan she'rlariga o'zi musiqa bastalab, pianinoda ijro etadi.

Farangizning so'zlarini tinglar ekanman, A.Distervegning ushbu hikmatli so'zlari yodimga tushdi:

«O'quvchini mehnat qilishga o'rgat, uni nafaqat mehnatni sevishga, u bilan shunday uyg'unlashishga ko'niktirginki, toki mehnat uning vujudiga singib ketsin, uni shunga o'rgatki, uning uchun o'z kuchi bilan biron-bir narsani bilib

ololmaslik aqlga sig'maydigan holat hisoblansin; u mustaqil o'ylamog'i, izlamog'i, o'zini ko'rsatmog'i, o'zining uyg'onmagan qobiliyatlarini rivojlantirmog'i, o'zini sobitli inson qilib yetishtirmog'i lozim».

Darhaqiqat, Farangiz juda yoshligidanoq o'zidagi noyob qobiliyatni sezib, 1-sonli musiqa maktabiga qatnay boshlagan. Keling, qolgan gapni uning o'zidan eshitaylik:

-Farangiz, pianino chalish qiyin emasmi?

-Boshlanishiga qiyin albatta, lekin men musiqaga juda qiziqqanim uchun

FARANGIZNING ORZULARI

pianino chalishni tezda o'rganib oldim. Ustozim Maya Nurmetova pianino chalish sirlarini hech erinmay o'rgatadilar. Ayniqsa, o'zim yozgan she'rlarimga musiqa bastalab olib borsam, ular quvonib ketadilar. Keyin birga yangi yozilgan notalarni ko'rib chiqamiz. Sekin-asta pianinoda chalib ko'ramiz.

-Qo'shiqlarni ham o'zingiz ijro etasizmi?

-She'rlarimni kuyga solib ijro etish mening yagona orzuim edi. Ancha-muncha mehnatlar evaziga shu orzuimga yetishyapman, desam xato bo'lmaydi.

-Bu mashg'ulotlaringiz darslaringizga halal bermaydimi?

-Darslarimni doim o'z vaqtida bajaraman. Vaqt topib ko'rik-tanlovlarga

ham qatnashaman. Tumanlararo o'tkazilgan «Yosh qalamkashlar» tanlovida 1-o'rinni egalladim.

Respublika miqyosida bo'lib o'tgan «Nafosat» ko'rik-tanlovida esa yurtboshimizning «O'zbekiston buyuk kelajak sari» kitoblari va «Faxriy yorliq» bilan taqdirlandim. 2002 yil noyabr oyida viloyat miqyosidagi «Zulfiyaxonim» nomli tanlovda qatnashib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldim.

-Qaysi sport turiga qiziqasiz?

-Shaxmat-

shaxka to'garagiga qatnashaman. Shaxmat o'ynasam aqlim charxlanganday tuyuladi, menga.

-O'yijoningizga uy yumushlarida yordamlashasizmi?

-Albatta, qiz bola birinchi navbatda uy tutishni, mazali taomlar tayyorlashni, tikish-bichishni bilishi lozim. Buvijonimdan kashtachilik, tikuvchilikni o'rganganman. O'zimga bemalol ko'ylak tika olaman.

-Qo'g'irchoq o'ynashni yaxshi ko'rasizmi?

-Ertak to'qib bo'lganimdan keyin qahramonlarimni ko'z oldimga keltiraman. Qo'limga paxta, tayoqcha, ip olib ertak qahramonlarimni o'zim yasayman. So'ngra ular bilan xohlaganimcha o'ynayman.

-O'ziga-o'zi o'yinchoq yasab o'ynash qiziq bo'lsa kerak? O'sha ertagingizni aytib bera olasizmi?

-Ertagimni she'riy tarzda yozganman. Hozir sizga «Malika va farishta» nomli ertagimni aytib beraman:

-Rahmat, juda ham yaxshi ertak ekan. Bundan keyingi ijodingizda omadlar tilab qolaman.

Gulyuz suhbatlashdi.

MALIKA VA FARISHTA

Qadim o'tgan zamonda, Bir malika bor ekan. Uning qasri tomonda, Ko'm-ko'k dala- bog' ekan. Bir kun go'zal malika, Ko'rib ko'm-ko'k dalani, Mehribon otasiga Aytibdi shu so'zlarni: - Otajon, jon otajon, Dalaga bormoqchiman. Uning go'zalligini, Yaxshilab ko'rmoqchiman. -Mayli qizim, boraqol, Faqat, tezroq qayta qol. -Rahmat, sizga otajon, Tez kelaman begumon. Qiz dalaga borganda, Ko'ribdi bitta gulni. Asta yoniga kelib,

Uzmoq bo'libdi uni. Endi uzaman desa, Farishta paydo bo'lib: -Ayt, sen kimsan, ey jonzot, -Debdi hayratga to'lib. -Mening ismim Go'zaloy, O'zim latofatga boy. Shuning uchun der otam, «Mening go'zal qizginam». Maqsading nedir sening? O'zing kimsan, ayt menga, Javob berdi Farishta: -Qo'riqchiman shu gulga. -Bu gulzoru gullarni, Qo'riqlaysan ne uchun? -Maqsadim yo'qotishdir, Undagi sehr kuchin. Bu gul asli farishta, Mening akam bo'ladi.

Uzib qo'ysang, vassalom, Akajonim o'ladi. -Ertalab tong otganda, Quyosh kulib boqqanda, Kelib bir mitti odam, Duolar o'qib shu dam, Akamni sehrladi, Va shularni so'yladi: -Sen shu gul qo'rg'onisan, Uni doim asraysan. Kimki uzmoqchi bo'lsa, Shu so'zlarni aytgaysan. O'sha senga do'st bo'lsa, Gulning sehri yo'qolar. Agar u do'st bo'lmasa, Akang gul bo'lib qolar. Farishta va Malika Do'st bo'lishib olibdi. Atirgunning sehri ham, Bir zumda yo'qolibdi.

Xurshida IBRAGIMOVA, 9 - sinf o'quvchisi:

-Uyimiz ko'p qavatli binolarda joylashgan. Odam zerikib ketadi. Ba'zida televizor, video ko'raman yoki bir-ikkita soat dugonalarim bilan telefonda gaplashib o'tiramiz... O'quv kurslariga qatnab, sartaoshlik hunarini o'rganib olgandim. Ta'til kunlari juda qo'l kelyapti. Qo'shni qizlarning sochlarini tekislab qo'yaman. Xizmat haqimni esa yig'ib yuribman. O'quv qurollari va darsliklar sotib olaman.

To'lqin ASHRAPOV, 10-sinf o'quvchisi:

-Uyimiz «Rohat» ko'liga yaqin. Ta'til kunlarida uchta o'rtog'im bilan «ish» qiladigan bo'ldik. Hozir yoz payti. Cho'milishga odamlar juda ko'p kelishadi. Biz ularga suv, har xil chanqovbosdi ichimliklar sotamiz. O'rtog'im Sarvar bizga suvlarni Yangioboddan «yetkazib» berib turadi. Biz esa sotamiz. Bu ham tadbirkorlikning bir turi. Ham o'zimizga foyda, ham odamlarni suv bilan ta'minlaymiz.

Ta'til qanday o'tyapti, bolakay?

Aziz o'quvchilar, mana ta'til kunlarining ikkinchi oyi ham ko'z ochib yumguncha o'tib borayapti. Kim ta'tilni qanday o'tkazayapti?

TA'TIL FAQAT DAM DEGANIMAS...

Jalil ESHMURODOV, 8 - sinf o'quvchisi:

-Biz o'rtoqlarim bilan suv bo'yida o'tiramiz. Faqat bekormas. Yonimizda «ish quollarimiz», ya'ni chelak va dokalar bo'ladi. Nima ish qilishimizni anglagan bo'lsangiz kerak. Mashina yuvamiz. Ba'zilar uylaridan shoshilib chiqishadi, ba'zilar ko'p qavatli uylarda turishadi. Ularning esa ko'pchiligida mashina yuvishga sharoit bo'lmaydi. Amakilar to'xtashsa bo'lgani, bir pasda chang bosgan mashinani yaltiratib beramiz.

Durdona ALIMOVA, 10 - sinf o'quvchisi:

-Tunov kuni tirband avtobusga bir onaxon chiqdi. Qo'lidagi yuklarini bir chetga qo'yib, birortasi joy berib qolar, deya umid bilan boqardi. Lekin hech kim o'rnidan jilmadi. -Hoy bola, onaxonga joy bersang-chi, -deya tanbeh berdi yoshi ulug'roq bir kishi.

-Amaki, biz ham o'ynab kelayotganimiz yo'q. Kechgacha bozorda arava tortib, charchaganmiz, -deya orqasini o'girib oldi haligi bola...

Tengdoshlarimning bozorlarda ishlab, pul topayotgani, ota-onalariga oz bo'lsa- da, ko'mak berishayotgani yaxshiku-ya, lekin ularning qo'pol, qo'rs bo'lib borishayotganidan tashvishdaman...

Aziz bolajonlar, mana, ayrim tengdoshlaringizning turlicha fikrlari bilan tanishdingiz. Bu borada sizning fikringiz qanday? Bizga albatta yozib yuboring.

Vahobjon ABDOVALIYEV, 11 - sinf o'quvchisi:
-Ta'til kunlaridan unumli foydalanib, amakimga yordamlashyapman. Ular «O'tchopar»da savdo qiladilar. Odamlar ko'p, amakimlarning qo'llari-qo'llariga tegmaydi. Men esa gohida xaridorlarga gazlama o'lchashda, gohida pul sanashda yordamlashib yuboramani. Bu esa o'zimga ham, amakimga ham foyda. Chunki sanash, o'lchab berish orqali matematikani yanayam yaxshi o'zlashtirayapman.

Shuhrat ODILOV, 9 - sinf o'quvchisi:

-Dadam avtomobillarni ta'mirlash joyida ishlaydilar. Ishlari juda og'ir. Mijozlar esa ko'p. Hadeb «chuqurcha»ga tushib chiqishda qiynaladilar. Ta'tilga chiqqan kunimizdan boshlab men ularning yonlaridaman. Kirib kelayotgan mashinalarga yo'l ko'rsatishda, (chunki haydovchiga chuqurcha yaxshi ko'rinmas ekan) mashinaga kerakli qismlarni uzatib turishda dadamlarga yordam berib turaman. Ishimiz og'ir, lekin mehnatda odam pishsa, keyinchalik qiynalmaydi. Balki men ham kelajakda dadamga o'xshagan yaxshi usta bo'larman... Buni albatta vaqt ko'rsatadi.

Uchrashuv

Aziz bolajonlar! Siz xalqimizning otash nafas shoiralari Uvaysiy, Nodira, Zebunisolarining qalamiga mansub nodir g'azallarni ko'plab o'qigansiz. Ana shu nodir g'azallardan biri Nodirabeginning «Tushimda ko'rsam edi» deya nomlanuvchi g'azali

Fransiyaning «Adeon» teatri zalida 60 dan ortiq davlatdan kelgan muxlislar huzurida yangraganida, go'yo zal bir zum qalqib ketdi. O'zbek qizining bulbuldek ovozi tomoshabinlar qalbini to'lqinlantirib yubordi. Ular bu qo'shiqni takror va takror aytishni iltimos qilishdi. 12 martagacha takror aytilgan mumtoz qo'shiqlarimiz xalqimizning buyuk merosiga berilgan munosib bahodir.

Ana shu maftunkor ovoz sohibasi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist

Muqimiy nomidagi O'zbek Davlat musiqali teatri aktrisasi Zulayho Boyxonova o'zining bolalik xotiralarini maroq bilan shunday so'zlaydi.

SHIRINGINA XOTIRA QOLDI...

-Bolaligim Namangan viloyati, Uychi tumanidagi so'lim «Birlashgan» qishlog'ida o'tgan. Buvijonim Tursinoy opaning «qiz bola hamisha orasta bo'lishi kerak», deya boshimizga do'ppi, egnimizga nimcha kiydirib qo'yishlari, ayniqsa, kir yuvayotganda tog'oraga birinchi navbatda dasturxon va sochiqlarni, oq rangdagi matolarni solish, hovli supurayotganda supurgini qanday tutish lozimligini uqtirishlari bir umrga qalbinga muhrlanib qolgan. Oilada olti nafar farzandning kattasi bo'lganim uchun doimo ukalarimga o'rnak bo'lishga intilardim. Maktabda barcha fanlarni yaxshi o'zlashtirsam-da, qaysarroq fe'lim tufayli matematika fanini xushlamasdim. Biz tahsil olgan 7-o'rta maktabda sinf rahbarimiz Mahkamboy akani hamma o'quvchilar sevib hurmat qilishardi. Mahkamboy akaning barchamizni o'z farzandlaridek tergab, har bir erishgan yutug'imizdan ko'ksi tog'dek ko'tarilishini hamon hurmat bilan eslayman.

Chunki har safar san'at bayramida qo'shiq kuylab, faxrli o'rinlarni olib kelganimda xuddi dadajonim Muhammadjon aka qatori ustozimizni ham yuzlari


yorishib ketardi.

Maktab sahnasida ilk bor ijro etgan qo'shig'im «Oyijon, boshginam og'riydi-yo» qo'shig'i edi. O'sha vaqtda iqtidorimga berilgan baho, mo'jazzgina bolalik dunyoimdagi eng katta yutug'im, deya ardoqlaganman.

Bolalik shu qadar shiddat bilan o'tib ketarkanki, qalbingizda undan faqat shiringina xotiralar qolarkan...

SAN'AT YO'LIGA TUSHDIM

San'atga bo'lgan kuchli ishtiyoqim tufayli Toshkentga kelib, Mannon Uyg'ur nomidagi Teatr va Rassomchilik Oliygo'hida tahsil oldim. Ustozim Asad aka Azimovdan kasbim sirlarini o'rgandim. O'zim mehnat qilayotgan Muqimiy nomidagi O'zbek Davlat musiqali teatrida qalbi daryo insonlar bilan hamkorlik qilaman. Otabek Xaqberdiyev, Dilmurod Uzoqov, Azizbek Latipov singari



kasbdoshlarimga bilmaganlarini o'rgataman, bilmaganlarimni esa ulardan o'rganaman. Bir qator spektakllarda: «O'jarlar» asarida Ozoda, «Alpomishning

qaytishi» asarida Oybarchin, «Taqdir» asarida Oyjamol, «Quduq tubidagi faryod» asarida Toshbuvi obrazlarini yaratdim.

Qaysi obrazni talqin qilmayin uni albatta tomoshabin yuragiga yetkazishga harakat

qilaman.

YURGAN DARYO EKAN...

Bir qator dunyo mamlakatlarida, jumladan: Belgiya,

Germaniya, Polsha,

Pokiston, Amerika

davlatlarida ijodiy

safarlarda bo'ldim.

Ushbu

mamlakatlarda

bolalar nihoyatda

erkin fikrlaydilar.

Lekin ko'plab bolalar oilaviy

yetishmovchilik sababli yoshligidan og'ir mehnat qilishga

majbur. Biz u yerda o'zimizning milliy liboslarimizda

chiqishlar qildik, ayniqsa, Amerikada yashayotgan

vatandoshlarimizga bepul konsertlar qo'yib berdik.

Guruhimiz faqat jonli ijroda chiqishlar qildi. Atlas

libosimiz zar do'ppilarimiz, zardo'zi nimchalarimiz

o'zga yurt kishilarini hayratga solardi. Hozirgi

qizlarimizning milliy liboslarimizda yal-yal yonib

yurishlarini xohlardim.

QIZIM- SIRDOSHIM, O'G'LIM-SUYANGAN TOG'IM

Kasbim taqozosi bilan ko'plab safarlarda bo'lsam

ham, farzandlarim tarbiyasiga katta e'tibor

beraman. Qizim Madinabonu bilan xuddi singlim

singari sirlashaman, toki o'z onasidan yaqin

maslahatdoshga muhtoj bo'lmasin, o'g'lim Firdavs

bilan esa yigit kishi qanday bo'lishi kerakligini, o'zini

qanday tutishi, odobi xususida hech erinmasdan

suhbatlashaman. Men uchun turmush o'rtog'im

Shuhratjon Mahkamov uchun ham farzandlarim

kamoli - baxtdir. Istagim farzandlarimiz ko'p

o'qishsin, ko'p bilishsin. Teatrlarimizga kelishsin.

Chunki san'atni sevgan odamdan yomonlik

chiqmaydi.

Mazmunli suhbatigiz uchun tashakkur.

Jamila ERDONOVA suhbatlashdi.

Avstraliyalik munajjimlar

fazodagi jami yulduzlarni sanab

chiqishganini ta'kidlashmoqda.

Ma'lum bo'lishicha, 70

CHEKSIZ YULDUZLAR

sekstilyon yulduzlar osmonimizda charaqlab tararkan. Bu raqamni son bilan ifodalash uchun 70 dan so'ng 22 ta nol yozish darkor.

Oy chiqmagan, shahar chiroqlari o'chgan tunda 5 mingga yaqin yulduzlarni ko'rish mumkin. Agar ko'chalar nurafshon bo'lsa, unda 100 ta yulduz ko'rinadi. Avstraliyalik olimlar eng zamonaviy texnika qurollari yordamida gallaktikadagi yulduzlarning aniq hisobotini Sidneyda o'tkazilgan Xalqaro astronomlar anjumaniga taqdim etishdi.

70 sekstilyon yulduz - bu dunyo bo'yicha mavjud bo'lgan sahrolar, cho'milish havzalaridagi qumliklardagi qum zarralaridan o'n baravar ko'p degani.

Yuqoridagi ko'rsatkich teleskopning samoda ko'rish mumkin bo'lgan ma'lumotlari xolos. Avstraliya Milliy Universiteti professori Saymon Drayverning aytishicha, yulduzlar soni bundan ham ko'p bo'lishi mumkin. Ehtimol, cheksizdir.

EYFEL MINORASINING JOZIBASI

114 yildan buyon Parijda qad ko'tarib turgan Eyfel minorasi tarixida qiziqarli voqealar ko'p sodir bo'lgan. Uni turli ranglarga, hatto milliy bayroq ko'rinishiga bo'yashgan, yuqoriga velosipedda ko'tarilish musobaqalari o'tkazilgan, mitti samolyotlarda minora tirqishlari aro uchishga harakat qilishgan. Biroq, uni hech kim va hech qachon o'g'irlamagan.

Nafaqat Parijning, balki Fransiyaning milliy iftixori hisoblanmish ushbu minorani ko'rishga

dunyoning turli burchaklaridan minglab odamlar tashrif buyurishadi. Eyfel

cho'qqisiga har yili 6 milliondan ortiq mehmonlar ko'tariladi. Chiptasining narxi esa 6-11 AQSH

dollari turadi. Shuning uchun chiptachilar soxta chipta ishlab chiqarishni yo'lga qo'ya

boshladilar. Ziyoratchilar liftga o'tirishdan oldin avtomat ravishda hisoblanganida

noto'g'ri chiqayotgani va daromadning kamayayotganini sezgan hisobxona xodimlari

politsiyaga xabar beradi. Ma'lum

bo'lishicha, bir necha oy ichida soxtachilar million Yevro ishlashibdi. Endi ular osmonni Eyfel minorasi jozibasi orqali emas, balki qamoqxona panjaralari orqali ko'rishga majbur.

Parij meriyasiga tegishli «Eyfel minorasini ekspluatatsiya qilish yangi jamiyati» vakilining aytishicha, endi kassalarga yangi kompyuterlashgan tizim o'rnatilib, undan hech qanday soxta chiptalar o'tkazilmasligini bayon qildi.

P.S. 22 iyul kuni soat 19.30 da Eyfel minorasining yuqorisida quyuq tutun paydo bo'ldi. Darhol qutqaruvchi bo'linmalar, o't o'chiruvchilar

vertolyotda yuqoriga ko'tarildi. Ma'lum


bo'lishicha, tele-radio to'lqinlari uzatiladigan qismda elektr chaqnashi sodir bo'lgan.

Operativ ravishda minoradagi mehmonlar evakuatsiya qilindi. Yarim soatda olov

o'chirilib, minora avvalgi holatdek ishlay boshladi.

Muharrama PIRMATOVA.

Dunyo darchasi



Maktab sahnasi uchun

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

Ortiq: - Bir odam besh kishini qirq daqiqa kuttirishi qandaydir, nima deyishni ham bilmayman, madaniyatsizlikmi...

Qodir: - Odamgarchilikka xilof!

O'tkir: - Do'stlarga hurmatsizlik.

Oqbola: - Mendan nima istaysanlar?

Muzaffar Burro: - «Nima istaysizlar?» desangiz tuzukrog' bo'lardi!

Qodir: - Menga qara, Zabixulla. Biz bilan dars tayyorlagim kelmasa, ochiq aytaver. Hech kim xafa bo'lmaydi. Hech kim seni majburlamaydi. Ammo va'da berib, kech qolish uchun odamda arziqli sabab bo'lishi kerak. Sababing bormi, Silovsin!

O'tkir: - Nega kech qoldingiz, Oqbola, O'sadigan bola! Aytoring, mumkin bo'lsa?

Oqbola O'tkiringa bir tarsaki tushiradi.

Kichkina: - Ortiq! Ortiq! Men ko'rmay qoldim. Nima bo'ldi? O'tkirmi urdimi? O'tkirmi-ya!

O'tkir: - «Oqibat shunchalik, borakallo».

Qodir: - Endi menga qara, Silovsin! Ket bu yerdan! Agar seni bittadan ursak, dabdalang chiqadi...

Oqbola shatur-shutur qilib qadamlarini gursillatib o'rtadan chiqib ketadi.

Bir g'amgin musiqa ovozi ingillaydi.

O'tkir: - Yo'q... Xafa bo'lishga arzimaydi... Boshladik... Qani darslikni och!

Kitob varaqlaydilar.

Kichkina: - «Rim imperiyasining halokati sabablari».

Ortiq: (to'ng'illagan ovoz bilan) - Tavba, kechirim so'rash ham yo'q... «Falon ish chiqib qoldi! Yetib kelolmadim, kechirasizlar», desa bo'lardi-ku.

SINOV KUNLARI

Miraziz A'ZAM

Kichkina: - Bizni tashlab ketdi. Endi hech kelmaydi.

Qodir: - Keladi. Albatta keladi. Kechirim so'raydi!

Muzaffar Burro: - Noto'g'ri qildim, deb o'ylagani uchun emas, kechirim so'rashi kerakligi uchun keladi. Aslida, ichida to'g'ri qildim, deb o'ylaydi... Silovsin...

O'tkir: - Eyy... Bo'ldi... Betamizlar... Hech narsa bo'lgani yo'q. Bu hodisaning hech qanday ahamiyati yo'q.

Kichkina: - Bor.

O'tkir: - Bo'пти... O'qi «Rim imperiyangni»...

Kichkina: (o'qiy boshlaydi): - «Rim imperiyasi qadimgi davrning eng buyuk va eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan quddorlik davlati bo'lib, dastavval Rim otlig' shahar edi. Miloddan oldingi 753 yilda asos solingandi. Keyinchalik rimliklar Italiyani bosib olishdi. So'ng O'rta dengizning ikkala tarafidagi joylarga o'z hokimiyatlarini o'rnatdilar. Keyinchalik, milodiy 98-117 yillarga kelib, uning tarkibiga Britaniya (hozirgi Angliya), Galliya (Hozirgi Fransiya, Belgiya, Niderlandiya, luksemburg, Shveysariya), Olmoniya, Ispaniya, Dunaybo'yi yerlari (hozirgi Bavariya, Avstriya, Vengriya), Yugoslaviya, Albaniya, Bolgariya, Ruminiya, Gretsiya, Kichik Osiyo, Kavkaz orti yerlari, Shimoliy Afrika yerlari ham qo'shilgandi».

O'tkir: - Voy-bo'... Sanashning o'ziga yarim kun ketadi-ya!

Menga qara, o'qishingni qisqa qil. Nega parchalanibdi, nega qulabdi, shunisini o'qiy qol.

Kichkina: - Mayli (kitobning keyingi sahifalarini varaqlaydi). Mana, mana (o'qiydi):

-yakka hokimlikning kuchayishi;

-o'lpon va soliqlarning ortishi;

-tekinxo'rlar sinfining kattalashib ketgani;

-yurtdoshlar aro urushlar;

-chet o'lkalarda o'z mustaqilligi uchun kurashlarning kuchaygani;

-turli qo'shni davlatlardan, chunonchi, Ispaniyadan vandallar, Shimoli-sharqdan xunlar, Italiyadan vestgotlarning hujumlari;

-saroy ahli o'rtasida ichki nizolar, taxt uchun kurashlarning avj olishi;

Imperiya 1453 yilda Konstantinopolning qulashi bilan butunlay barham topdi.

Ortiq: - Boshqa sabablar aytilmabdimi? Yaxshilab qarachi!

Kichkina: - Yo'q, yo'q...

Shu payt davraga yana Oqbola keladi. Sinfdoshlar jim bo'lib qoladilar.

Oqbola: - Do'stlar! Meni kechiringlar! Mendan o'tdi. Kech kelganim sababini aytish o'rniga qo'pollik qildim. Men yarim soat yaxshiroq joy qidirgandim.

Qodir: - Birov senga joy qidir, dedimi?

Ortiq: - Agar bu joy senga yoqmasa, kechani o'zidayoq aytsang bo'lardi-ku. Nega oldin va'dalashib, keyin qaroring o'zgarib qoldi?

Oqbola: - Bo'ldi! Aytayapmanku, ayb menda deb! O'tkirjon, O'tkir! Kechir meni, iloji bo'lsa...

O'tkir: - Hechqisi yo'q, bo'lib turadi, o'tir... Eshitaylik.

Ortiq: - Rim imperiyasining qulashiga olib kelgan yana bir sabab bor. Unisi aytilmabdi, negadir...

O'tkir: - Otelloliging tutib qolmadimi? Qanday sabab ekan?

(Davomi bor).



MASRUR

(hikoya)

q u s h
d e g a n i

daraxtga qo'nadi-da.

-Kattasiga emas, o'zim ekkanga, haydasam yana kelib qo'nayapti.

-Hozir chiqamiz, dedim Masrurni yupatib, u shoshib iziga qaytdi.

Ko'cha boshiga chiqsak, Masrur bo'yi tenggi olcha oldida turibdi. U bizni ko'rib xursand bo'lib ketdi.

-Men chiqishim bilan uchib ketdi. Abromnikiga borib qo'ndi.

Do'stim menga ko'zini qisdi:

-Masrur, Abror ekan ko'chatni sindirsa maylimi.

Masrur o'ylanib qoldi.

-Unikiyam sinmasin.

-Unda kimniki sinsin?

-Hech kimniki.

-Qushlar atay Masrur bilan Abror ko'chat ekan, deb kelishmagan-ku. Haydasang, arazlaydi. Qaytib kelmasa ham kerak.

Masurning ko'zlari jovdiradi.



-Olcham yosh, endigina nishona qildi. Shoxlari sinsa nima qilaman?

Do'stim menga yuzlandi.

-Masrur juda zo'r bola-da, buvasining hamma aytganlarini qiladi.

Masurning chehrasi yorishdi.

-Buvam, bu seniki, deganlar.

Masurning buvasi bahorda

sarxil ko'chatlarni olib kelib, Masurning o'rtoqlariga ulashdi.

-Qani toychoqlar, mana bularni eshiklaring oldiga ekinglar-chi.

Bir zumda qo'ni-qo'shni bolalari: - Abror, Anvar, Zafarlar belkuraklarini ko'tarib chiqib, chuqurcha qazishdi. Masurning buvasi o'rgatgandek qilib, o'tqazishdi. Sug'orishdi.

-Mana, endi, dedi Masurning buvasi, -o'zlaring ekdilaring. O'zlaring asranglar. Qani kimning ko'chati oldin o'sarkin.

Bu ham mayli. Masurning buvasi yana nima dedi deng. Kim ko'chatni yaxshi parvarish qilsa, o'sha bilan bo'yi ham baravar o'sar emish. Bu gapni eshitgan to'rttala o'rtoq ham baravar jilmaydi. Ekan ko'chatlari bor-yo'g'i tizzalariga

Safar BARNOYEV

teng kelardi. Lekin baribir Masrur buvasining aytganini qildi. O'rtoqlaridan yashirin olchasi bilan bo'yini o'lchab turdi.

Faqat u desak, o'rtoqlari ham shunday qilarkan. Qayda, ko'chatlari ko'p o'tmay shox yoyib, tik o'saverdi. Bolalar bilan tenglashdi, qoldi. Bundan Masrur biroz tashvishga tushdi. U buvasiga arz qildi.

-Buvajon, nega mening bo'yim o'smayapti.

Buvasi gap nimadaligini sezib, javob berdi.

-Olchangni avaylasang, meva qiladi. Mevalaridan yesang, sening bo'ying undan ham o'sib ketadi.

Shu bo'ldi-yu Masrur bilan o'rtoqlari ekan ko'chatlari atrofidan nari ketishmasdi.

Mana endi gala-gala qushlar ham chug'urlashib qolishdi...

Jildirab oqayotgan ariq bo'yida qo'llarini boshiga yostiq qilib, oyoqlarini chalishtirib chalqancha yotgan Masrur o'rtoqlariga zavqlanib nimalarnidir tushuntirardi.

Ovozimizni eshitib, ziyrak tortgan Masrur dik etib o'rnidan turdi-yu Abror, Anvar, Zafar bilan bizni ko'cha yuzigacha kuzatib qo'ydi.

No'monjon ikkimiz bu holatdan mamnun edik...

Do'stim No'monjon bilan suhbatlashib o'tirgandik, o'g'li Masrur hovliqib kirdi.

-Ada-chi, ada...

-Iye, amaking bilan so'rashmading-ku, do'stim o'g'liga tanbeh bergan bo'ldi, - qani oldin salomlash.

Masrur qo'lini cho'zdi.

-Assalomu alaykum!

-Masrur juda zo'r bola-da, dedi do'stim, - hamma ishni bajaradi. Mana, hozir bizga yangi choy damlab keladi.

Masrur «hozir» dedi-yu adasining qo'lidan tortdi.

-Yuring, yuring.

-Amaking mehmon bo'lib kelgan, yolg'iz qoldirsak xafa bo'ladi.

-Siz ham yuring, dedi Masrur.

-Tinchlikmi, - kuldi do'stim.

-Yuring, ko'rasiz, - qistadi Masrur, keyin qo'shib qo'ydi, - u ko'tarolmay sinib ketadi.

Do'stim kulib yubordi.

-Topgan gapingni qara, o'g'lim. Axir



Faqat qizlar o'qisin

«QIZIMNI MULZAM QILIBSIZ»

-Qizlarimizni nozik navniholga, gulga qiyoslaymiz. Demakki, ular uchun alohida e'tibor, parvarish lozim.

borayotganini ko'rgach, bizdan behad minnatdor bo'ldi. O'z vaqtida oldi olinmaganda, hatto bepushtlikka ham

...OLDINI OLGAN MA'QUL

O'smir qizlarimizda yana tez-tez uchrab turadigan xastalik - bu bo'qoq bezi ish faoliyatining buzilishidir.

YODINGDA TUT. QIZGINA

olib kelishi mumkinligini anglab, to'g'ri yo'l tutganiga

11 - 13 yoshli qizlarda balog'at yoshi pillapoyalari boshlanadi. Qaddi-qomatida, ichki sekretsiya bezlari

amin bo'ldi.

Kasallikning asosiy manbai - tuzdagi yod moddasining yetishmasligidir. Bu xastalik bilan og'rigan bemorlarning

faoliyatida o'zgarishlar kuzatiladi. Yuzlariga toshayotgan husnbuzarlar ularni shoshirib qo'yadi.

Biz 1 - toifali doyamiz Dilobar Yunusova bilan birgalikda tumanimizdagi bog'cha va maktablarda tez-tez bo'lib turamiz. Ayniqsa, 6 - 11 - sinf qizlarini tibbiy ko'rikdan o'tkazishga jiddiy ahamiyat beramiz. O'tgan yili ana shunday ko'rik davomida bo'lib o'tgan bir voqeani so'zlab bermoqchiman, toki bu boshqa qizlarimiz, ularning onalari uchun ham saboq bo'lsin. 9 - sinf qizlarini ko'rikdan o'tkazayotgandik. Bir qizchani o'zini tutishi, kattagina qornini yashirish maqsadida gavdasini egib yurishi e'tiborimni tortdi. Uni boshqa qizlar oldida

mulzam qilmaslik uchun indamay chiqarib yubordim. Ko'rik tugagach esa bir bahona bilan hech kimga sezdirmay yonimga chaqirib oldim. Aftidan uni chaqirishimni, biron narsa deyishimni bilgandek, hech ajablanmay yonimga keldi.

-Qizim, sening ko'rinishing meni tashvishga solyapti,-deya so'z boshladim bosiqlik bilan.-Qorin qismini ancha kattalashgan. Uni yashirish maqsadida bukchayib yuribsan. Bu haqda onang hech narsa demaganmilar?..

Ma'lum bo'lishicha, bu qizchada bir necha bor shamollash jarayoni o'tgan. Onasi esa unga bee'tibor bo'lgan. Natijada tuxumdon o'smasi paydo bo'lib, kattalashib ketgan. Dastlab uning onasi, qizimni ko'pchilik orasida mulzam qilibsizlar, deya bizdan ranjib yurdi. O'simtasi jarrohlik yo'li bilan olib tashlangandan keyin qizining qomati rostdanib, salomatligi tiklana

Bolajon xalqimizda oilada farzand tug'ilishi bilan bog'liq bo'lgan ibratli hikmatlar talaygina. Xonadonda o'g'il farzand dunyoga kelsa, uni oilaning mustahkam ustuniga qiyoslashadi. Qiz tug'ilsa, naslning davomchisi, deya quvonishadi, ardoqlashadi. Alohida mehr bilan parvarish qilishadi. Bu borada ayniqsa, qizlarning eng yaqin sirdoshi bo'lmish onalarning o'rni beqiyos. Qizlaridagi har bir o'zgarishni kuzatib borishadi, qalbiga quloq tutishadi. Lekin afsuski har doim ham shunday bo'lavermaydi. O'smir yoshidagi ayrim qizlarimiz tanasida sodir bo'layotgan ba'zi o'zgarishlarning sababini to'liq tushunib yetmaydilar. Bunday holatlarda qanday yo'l tutish lozimligini bilolmay garang bo'ladilar. O'z muammolari haqida onalari bilan suhbat qurishga esa uyalishadi. Hammasi risoladagidek bo'lsa, yaxshi-ya. Ayrim hollarda salomatliklariga putur yetgan holatlar ham kuzatiladi. O'smir yoshidagi qizlarimizni vaqti-vaqti bilan shifokor ko'rigidan o'tkazib turish maqsadga muvofiqdir. Afsuski, ayrim onalarimiz qiz bolani ayollar maslahatxonasiga olib borishni oila sha'niga isnod deb tushunadilar. Qizlaridagi tuxumdonlarning shamollashi natijasida kuzatiladigan kuchli og'riqlarga e'tibor ham bermaydilar.

Shuning uchun ham hozirgi kunda shifokorlarimiz maktablarda bo'lib, o'smir yoshidagi qizlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazyaptilar. Bu borada Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi 34 - Oilaviy shifoxonada ham talaygina ibratli ishlar amalga oshirilyapti. Ana shu maskanda uzoq yillardan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgan ajoyib shifokor, 1- toifali ginekolog Malika opa Xudoyberdiyeva bilan qilgan suhbatimiz ham qizlar salomatligi xususida bordi:

**Xalqaro Sog'liqni Saqlash Sizing kitob javoningizga**

Tashkilotining ba'zi bir rasmiy

ma'lumotlariga qaraganda: Yer yuzining 1,5 milliarddan oshiq aholisi yodni kerakli miqdorda iste'mol qila olmaslik xavfida yashamoqda.

655 million kishida qalqonsimon bezning

kattalashuvi- bo'qoq kasalligi qayd

etilgan. 43 million

kishida esa

yod tanqisligi

natijasida aqliy zaiflik

alamatlari kuzatilyapti.

Shu sababli bo'qoq kasalligi muhim- xalqaro miqiyosdagi muammo bo'lib, u o'z millati va xalqining salomatligidan manfaatdor bo'lgan barcha sog'liqni saqlash tashkilotlaridan jiddiy e'tibor talab etadi.


Bir kecha- kunduzda inson uchun 200 mikrogramm yod zarur. Agar ushbu miqdor organizmda yetishmasa, kattalarda bo'qoq shishadi, bolalarning esa aqliy rivojlanishi ortda qoladi.

Keyingi paytda yod moddasi sut, tuxum va turli oziq-ovqat mahsulotlariga qo'shib berilmoqda.

Yaqinda Xalqaro Axborotlashtirish Akademiyasining akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, bo'qoq kasalligini aniqlash va davolash sohasida yangi usullar ishlab chiqqan olim Rajabxoji Islombekov tavsiyasi bilan Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Xasanboy qishlog'ida «Tanj-boyjon» deb ataladigan o'zbek-turk qo'shma korxonasi bolalar uchun yodlashtirilgan saqichlar chiqarila boshlandi. Uni «Aql-saqichi» deb ham atashadi.

Ushbu xastaliklar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmoqchi bo'lsangiz, akademik Rajabxoji Islombekovning «Makka ziyorati» nomli kitobini olib o'qing.

Tohir MULLABOYEV.



soch tolalaridan tortib tirnoqlarining uchigacha zararlanadi. Uning asorati ayniqsa, qizlarimizda og'ir kechadi. O'z vaqtida davolanmasalar, ularda oila qurgandan keyin bepushtlik, homilaning tushib qolishi, tug'ilajak farzandlarining aqlan yoki fiziologik nuqsonlar bilan tug'ilishi hollari kuzatilishi mumkin. Bu kasallikning oldini olish uchun esa, birinchi navbatda kundalik iste'mol qiladigan tuzimzning albatta yodlangan bo'lishiga ahamiyat berishimiz lozim. Yana, farzandlarimiz yong'oq, bodring, kartoshka, rediska, xurmo kabi sabzavot va mevalarni ko'plab iste'mol qilishlari kerak. Yodlangan non mahsulotlari, saqichlar, tish yuvish pastalarini ham tavsiya qilgan bo'lardim.


ORASTALIK ODAT BO'LSIN

Qizlarimiz orastaliklari bilan o'g'il bolalardan ajralib turadilar. Ularning yoshlikdanoq shaxsiy gigiyenaga rioya qilishlari, bo'lajak onalikka poydevor vazifasini o'taydi. Buning uchun esa ular orasta bo'lishlari, ich kiyimlarini ozoda tutishlari, dazmollab kiyishlari, xayz ko'rish paytlarida hovuzlarga tushmasliklari, zax, nam joylarda o'tirmasliklari lozim bo'ladi...

Biz bu fikrlarni, shifokor maslahatlarini bejiz keltirganimiz yo'q. Ularni oqila qizlarimiz, ularning eng yaqin sirdoshi, maslahatgo'yi bo'lmish onalarimiz o'qishsin, o'zlariga tegishli xulosalar chiqarib olishsin. Zero, bugungi jazzi qizaloqlar ertaga ONA bo'lishadi. Ular sog'lom bo'lsalar, naslimiz, demakki, kelajagimiz barkamol bo'ladi.

Feruza JALILOVA

suhbatlashdi.



Tengdoshlarning ijodi

Rivoyat qilishlaricha, bir xasis boy bo'lgan ekan. Undan nafaqat mahalla ahli, balki xizmatkorlar ham norozi bo'lib ketib qolisharkan. Bir kuni uning eshigini Salim ismli

QABRDAGI YOQUT TOSH

bir kambag'al bola taqillatibdi. Boy uni huzuriga chaqiribdi. Boy unga oyiga 10 tangadan berib, ishlatishga rozi bo'libdi. Boy uni har xil ishlarga buyurar, bola kuni bilan tinmas ekan. Mollarni qirga haydab boqib kelar, tagini tozalar, uy yumushlarini bajarar ekan... Xullas, terga botib ishlarkan. Oradan bir oy o'tibdi. Salim o'zini haqqini so'rab, boy huzuriga kiribdi. Boy unga: «Shu bir oy mobaynida nima yeb, nima ichding? Axir ko'chada qorningni to'ydirmading-ku», debdi. Salim noiloj qorningni to'yganiga shukr qilib, xizmat qilib yuraveribdi. Oradan bir yil o'tibdi, ikki yil o'tibdi hamki boy uning haqqini bermasdan, ishlatib yuraveribdi. Bir kuni Salim ustining yupun bo'lib ketganini, qish yaqinlashgani uchun unga kiyim-bosh kerakligini aytibdi. Chiqimga toqati bo'lmagan boy uni ko'chaga haydab solibdi. Tez orada qahraton sovuq boshlanibdi. Salim sovuqdan junjikib, ko'chada qolib ketibdi. Ertalabgacha katta muz parchasiga aylanib qolibdi...

Azonlab ko'chaga chiqqan bir mo'ysafid kishi muzlab qolgan odamni ko'rib qolibdi. Uni amallab uyiga olib kirib, mahalladagilarga xabar beribdi. Odamlar bu bolani Boyning xizmatida ko'rishganini aytishibdi. Xasis boy buni ham ko'chaga haydabdi-da, deb uni ko'mishmoqchi bo'libdi. Boyning o'g'li bu gapni eshitib, otasiga aytibdi.

Tun yarmida boy alahsirab uyg'onib ketibdi. Ko'chaga chiqib, o'z-o'zidan mozar tomon yura boshlabdi. Qarasa, bola ko'milgan joyda, qabr tepasida bir nima yalt-yult qilayotganmish. Boy bu yoqut yoki gavhar bo'lsa kerak, deb o'ylab, qabr tomon shoshilibdi. Qarasa, chindan ham qabr tepasida kattakon yoqut tosh ming bir jilolanib turganmish. Uni olmoqchi bo'lib, qo'l cho'zgan ekan, yoqut toshga qo'llari yopishib, kuya boshlabdi. Boy dod-faryod qilibdi, lekin uni hech kim eshitmabdi... O'sha kuni boy ikki qo'lidan ajralib qolibdi. Shu-shu hech kimga yomonlikni ravo ko'rmaydigan, xasislik qilmaydigan bo'libdi.

Nilufar NORMATOVA,
Qarshi shahar, 30-o'rta maktabning
6- «A» sinf o'quvchisi.

Tengdoshingiz Kamolaxon Abdurahmonova
Farg'ona viloyati, Bag'dod tumanidagi so'lim Chuvalachi qishlog'ida istiqomat qiladi. U ko'pdan buyon she'rlar mashq qiladi. Yuragiga muhrlanib borayotgan sokin qishloq manzaralarini, uning go'zal tabiatini, maktab partasidagi orzu-o'ylarini oq qog'oz yuziga to'kayotgan Kamolaxonga ijodiy barkamollik tilaymiz!



BOG'

Uyimizning oldida,
Qishlog'imiz bog'i bor.
Tartib bilan ekilgan,
Har xil mevalar qator.

Bog'dagi shaftolilar,
Yesangiz shirin juda.
Behi, uzum, o'rikning,
Ta'mi o'zgacha bunda.

Kelib ko'ring olmasin,
Atlas kabi tovlanar.
Quyoshjonga jilmayib,
Nurlarida toblanar.

Bog'dagi mevalarni,
Ko'rib qilasiz havas.
Mehmon qilamiz, keling,
Ozini aytdim, xolos.

BULBULCHAM

Kecha-kunduz bog'imda,
Sayrab turar bulbulcham.
Sevib deyman men uni,
Gulday go'zal gulg'uncham.

Bulbulchamning sayrashi,
Orom berar ko'nglimga.
Gulzor aro yayrashi,
Ilhom berar qalbinga.

Erta tursam u uchib,
Sayrab kelar yonimga.
Maftunkor ovozidan,
Rohat yetar jonimga.

Kamola ABDURAHMONOVA,
Farg'ona viloyati,
Bag'dod tumanidagi
Chuvalachi qishlog'i.

ONA

Onajonim, mehribonim,
Bag'ri kengim, nurjahonim.
Siz bilandir yorug' olam,
Charog'bonim, onajonim.

Siz bog'bonsiz, men-chi nihol
Bog'ingizda bo'lay hilol.
Beg'uborsiz suvdek zilol,
Mo'tabarsiz aziz ayol.


Siz bilan porloq yo'lim,
Siz-la olam go'zal doim.
Duo aylang, porloq bo'lsin,
Mening ertam, istiqbolim.

Ruhangiz AXTAMOVA,
Nurota shahridagi Nodira nomli maktabning 7-sinf o'quvchisi.



BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

| | | | | | |
|--------|------|-------------|-------------|--------------|----------------|
| Zontik | | | | | |
| Cu | | Tutqun ayol | | | |
| | | Oz | | | Tanlangan Film |
| | | | | | |
| Unumli | | | | Dengiz | |
| Adan | | | | Xat | |
| | | | | Meva Xursand | |
| | | | | | |
| | Ovoz | Zakovat | Qayiq | | |
| | | Umuman | | | |
| | | Rasm | | | |
| | | Shoh... | | | |
| Dalil | | | | | Toat |
| Xon | | | | | Tovush |
| | | | | | |
| Ofis | | | | | |
| Alanga | | | Sport Lahza | | |



Tuzuvchi:
Mohichehra MAJIDOVA,
Angren shahar,
Mirobod qo'rg'onidagi
2 - maktabning
9-sinf o'quvchisi.

1. Avstriyaning poytaxti qayer?
A. Vena
B. Anqara
C. Mesopotamiya

2. O'zbek tiliga davlat tili maqomi qachon berilgan?
A. 1989 yilda
B. 1990 yilda
C. 1991 yilda

3. Dunyoda nechta mo'jiza bor?
A. 1 ta
B. 7 ta
C. 8 ta

4. Dunyo dinlari nechta?
A. 1 ta
B. 2 ta
C. 3 ta

5. Quvvatning o'lchov birligi nima?
A. Vatt
B. Joul
C. Kg.

Nulufar SAIDOVA,
Samarqand viloyati, Oqtosh shahridagi
66-maktabning 6- «V» sinf o'quvchisi.

ARALASH TEST



Muassislar:
O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

Bosh muharrir o'rinbosari:
 Feruza JALILOVA
TAHRIR HAY'ATI:
 Umida ABDUAZIMOVA (bosh muharrir),
 Shuhrat AHMEDOV,
 Jamoliddin FOZILOV,
 Oynisa MUSURMONOVA,
 Qahramon QURONBOYEV,
 Po'lat MO'MIN,
 Mukarrama MURODOVA,
 Tohir MULLABOYEV,
 Ergashvov SARIQOV.

Nashir «Ijod dunyosi» nashriyot uyi.


Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma taboq.
«Sharq» nashriyot - matbaa aksiyadorlik kompaniyasida ofset usulida bosildi.
Adadi - 33729
Korxonalar manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41.
Buyurtma № F - 502
Gazetani Ma'suda IRISNAZAROVA sahifaladi.
Navbatchi: Ozoda TURSUNBOYEVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75

BECHORA TO'TI

Hovlimizda o'ynab yurgan edim. Shu payt uzumimiz so'risiga juda chiroyli to'tiqush kelib qo'ndi. Bir ko'nglim uni tutib olib boqmoqchi



ham bo'ldim.

fikrimdan qaytdim. «Mayli, yashayversin», degan To'tiqush sho'x sayrab, Ertasi kuni maktabga bordim. Dars tugagach, o'rtoqlarim bilan uyga qaytayotgandik. Ne ko'z bilan ko'rayki, kechagina menga bir olam zavq bag'ishlagan to'tiqush o'lib yotardi. Aytishlaricha, bizdan yuqori sinflarda o'qiydigan bolalar uni tutib olib, qiynab o'ldirishibdi. Men juda xafa bo'lib ketdim. Kattalarning jonivorlarga g'amxo'rlik qilib, biz kichkintoylarga o'rnak bo'lish o'rniga qilgan ishlarini qarang...

Uni tutib olib, qafasda boqqanimda, o'lmasmidi?..

Dilmurod RIZAYEV,
Orom nomli bog'chamaktabning 3 - «D» sinf o'quvchisi.

ONAJONIM TABIAT




Lekin zumda erkini qarorga keldim. uchib ketdi.

uzunligi 40 santimetr, baroq dumi 60 santimetr, juni qattiq, qoramtir - kulrang tusda bo'lib, boshi va quloqlari katta, oyoqlari bir xil uzunlikda bo'lar ekan. Ayye-ayyalar Madagaskarning shimoli-sharqidagi chakalakzorlarda juft-juft bo'lib

AYYE- AYYE

A z i z tengdoshlarim, mana bu rasmdagi hayvon maymunga o'xshaydimi?



Unchalikmas, deysizmi? Men ham o'xshatmadim. Lekin bu hayvon chala maymunlarning kenja turkumiga kirar ekan. Tanasining

yashashar ekan.

Nomi «Qizil kitob» ga

kiritilgan bu hayvon

hasharotlar, shakarqamish va mango mevasi bilan oziqlanar ekan. Aytishlaricha, ular uchun Kuse-Mangobe orolida maxsus qo'riqxonalar ham tashkil etilgan ekan.

Adiba ERGASHEVA,
Toshkent shahar,
Yunusobod tumanidagi
273 - litsey maktabning
8 - «A» sinf o'quvchisi.

Aziz bolajonlar, yoz, ta'til gashtini mazza qilib surib yuribsizlarmi? Qayerlarda bo'ldingiz, nimalarni ko'rdingiz? Tog' yon bag'irlarida, tabiat quchog'ida, deysizmi? Ayni muddao bo'libdi-da. Tabiatga, jonzotlar hayotiga oid ko'plab qiziqarli voqealarning guvohi bo'lgandirsiz. kuzatishlaringizni yon dastarchangizga yozib olgandirsiz. Ularni tezda xatjildga joylab, bizga yuboring. Ko'rgan-kechirganlaringizni, hayajonli taassurotlaringizni do'stlaringiz bilan o'rtoqlashing. Hozircha fusunkor tabiat go'zalliklaridan ilhomlanib, qo'lga qalam olgan tengdoshlaringiz ijodidan namunalarni o'qib turing.

BILASIZMIZ?

Avstraliyada yashaydigan kengurular soni odamlar sonidan ikki baravar ko'p ekan.



xxx
 Yer yuzida tanavvul qilish mumkin bo'lgan qo'ziqorinlarning 2500

xili mavjud ekan.

xxx
 Hech qachon terlamaydigan parrandalar - qushlar ekan.



xxx
 Nima uchun o'rgimchaklar hech qachon



o'z to'riga o'ralib qolmasligini bilasizmi? Chunki ular to'r to'qiyotganda o'zi yopishib qolmaydigan bir nechta ip ham to'qiydi va aynan ana shu iplar ustida bemalol harakatlanadi. U 250 gramm to'ri bilan Yer yuzini bir marta aylanib chiqishi mumkin ekan.

Kamola UBAYEVA tarjimasini.

Bugun dam olish kuni bo'lgani uchun odatdagidan ancha kechroq uyg'ondim. Sochiqni yelkamga tashlab, hovlimiz etagidagi bog' tomon odimladim. Tabiatning erka qizi shabboda menga hamroh bo'ldi. U goh ilgari ketar, goh orqada qolar, men bilan o'ynashgisi kelib, sochlarimni beozor tortqilar, yuzlarimni siypalardi.

Boqqa yetib borib ikkimiz ham hayratdan lol qoldik. Bog'da gullar qiyg'os ochilgan, shirindan-shakar mevalar g'arq pishgandi. Qushlarning maftunkor qo'shiqlari kishini o'ziga rom qiladi. Asalarilarning «qo'shiq»lari, kapalaklarning guldand-gulga ko'chib, tushayotgan «raqs»lari bog'ning tarovatiga yanada ko'rk qo'shadi. Sal nariroqdagi sho'x shalola diqqatimni tortdi. U beg'ubor, mas'um bolakaydek o'ynoqlab, irg'ishlab oqar, qayoqqadir shoshardi.

Toshdan-

toshga urilib, har tarafga sachratayotgan marjon-marjon tomchilari, endi uyqudan ko'z ochgan erinchoq maysalar yuzini yuwardi go'yo. Unga qarab turib, beixtiyor

buvim aytib bergan bir rivoyat yodimga tushib ketdi:

... Qadimda Bog'ijamol nomli bir shahar bo'lgan ekan. Podshosi adolatli, odamlari sahovatli, ayollari malohatli ekan. Dasturxonni to'kin-sochin bu shahar ahliga hammaning havasi kelarkan. Ba'zi bir ichi qora odamlar esa ularga hasad ham qilisharkan.

Shaharning qoq o'rtasidan suvi feruza osmondek tiniq kattagina soy oqib o'tarkan. Shahar ahli uning suvini ichar, bog'-rog'larini sug'orisharkan.

Nima bo'libdi-yu odamlar orasiga

shayton oralabdi. Ular orasidan mehr-oqibat ko'tarilibdi. Qalblaridagi tabiatga bo'lgan mehr tuyg'ulari ham barham topibdi. Tiniq soyga turli chiqindilar tashlay boshlashibdi. Ayollar kirlarini yuvib, suvlarini ifloslantirishibdi. Ilgarigi zilol chashmadan asar ham qolmabdi. Bu holdan suv juda ranjib, o'z yo'lini o'zgartiribdi. Boshqa shahardan oqib o'ta boshlabdi. Suvsiz qolgan shahar ahli juda qiynalishibdi, qilib qo'ygan ishlaridan pushaymon bo'lishibdi. Lekin endi kech bo'lgandi. Tabiat xatoliklarni kechirmas ekan...

Buvimning aytishlaricha, qadimda suv juda loyqa bo'lgan ekan. Shunday bo'lsada, odamlar uni juda qadrlashar, ariq va zovurlarni toza saqlasharkan. Hozir-chi, biz shunday bebaho ne'matning qadriga yetyapmizmi? Yo'q! Unga axlat tashlab bulg'ayapmiz, zovurlarni chiqindilar bilan to'ldirib tashlayapmiz. Men bir narsadan, buvimning rivoyatidagi shahar ahlining ayanchli holiga tushib qolishimiz mumkinligidan xavotirdaman. Siz-chi, aziz do'stlarim?

Gulnoza NAJMIDDINOVA,
Namangan viloyati, Chortoq tumanidagi
Mirzo Ulug'bek nomli 22 - o'rta maktabning
11 - sinf o'quvchisi.